MADANIY TURIZMNING RIVOJLANISHIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

Xasanov Lazizbek Kabirjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti O‘zbekiston-Xitoy arxeologiya qo‘shma kafedrasi o‘qituvchisi

Аннотация:
Ushbu maqolada madaniy turizmning mohiyati va mazmuni, uning milliy iqtisodiyotdagi roli, jamiyat rivojiga ta'siri, shuningdek, O‘zbekistonda ushbu sohani rivojlantirish istiqbollari va milliy qadriyatlarning ahamiyati muhokama qilinadi. Madaniy turizmning ahamiyati tarixiy merosni saqlash, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish va iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shish nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: madaniy turizm, meros, qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, milliy madaniyat, turizm infratuzilmasi, turizm, ziyorat turizmi, etnografik turizm.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida turizm dunyo miqyosida eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, madaniy turizm zamonaviy turizmning muhim tarkibiy qismi sifatida nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy va madaniy rivojlanish uchun ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Madaniy turizm insonlarning o‘zga xalqlarning qadriyatlari, urf-odatlari, san’ati, tarixi va hayot tarziga qiziqishidan kelib chiqadi. Shu bois u nafaqat hordiq chiqarish, balki ma’naviy boyish, dunyoqarashni kengaytirish vositasi sifatida ham alohida e’tirof etiladi. Iqtisodiy adabiyotdlarda tarixiy-madaniy turizmga oid masalalar qator olimlar tomonidan o‘rganilgan va turlicha ta’riflar berilgan.

ADABIYOTLARNING TAHLILI

Gollandiyalik tadqiqotchi Richard Greg tarixiy-madaniy turizmni “kishilarning o‘z madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun yangi ma’lumotlar va tajriba to‘plash maqsadida odatiy yashash joyidan uzoqda joylashgan madaniy, diqqatga sazovor joylarga borishi” deya ta’riflaydi[5: 45]. Ya’ni turizm insonni o‘zi yashaydigan joydan chiqib o‘zi uchun yangi joylarni kashf etish, yangilik yaratish, tajriba orttirish hamda madaniy xordiq chiqarish uchun tashkillangan jarayondir.

Rossiyalik mutaxassis Y.V.Kolotova tarixiy-madaniy turizmni “mamlakatning barcha imkoniyatlarini o‘z ichiga olgan an’ana va urf-odatlari, uy xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘langan ijtimoiy-madaniy muhit salohiyati” deya ta’riflaydi.[4: 92-93] Turizm ya’ni sayohat davomida insonni duyoqarashi, fikrlash doirasi, muomala madaniyati, o‘zi uchun tajriba almashinuvi va boshqa xalqlarning madaniyati, urf-odatlari o‘ziga xos madaniyati shakillanadi.

O‘zbekistonda tarixiy yodgorliklar, ulug‘ ajdodlarimizning yuksak iste’dodi bilan bunyod etilgan obidalar, muqaddas qadamjolar kabi 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan. Madaniy turizmning iqtisodiy ahamiyati nihoyatda katta. U xizmatlar sohasining rivojlanishiga turtki bo‘lib, mehmonxona, transport, ovqatlanish, hunarmandchilik va boshqa yo‘nalishlarda yangi ish o‘rinlarini yaratadi. Shu bilan birga, u milliy iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotidagi turizm ulushini oshiradi. O‘zbekistonda madaniy turizmni

rivojlantirish uchun so‘nggi yillarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi doirasida turizm milliy iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. “Ziyorat turizmi”, “Ipak yo‘li turizmi” kabi loyihalar orqali xorijiy sayyohlar soni yil o‘tgan sayin ortib bormoqda[3: 15.] Ipak yo‘li turizmi — bu nafaqat sayohat, balki insoniyat tarixidagi eng ulug‘vor savdo va madaniyat yo‘llari bo‘ylab amalga oshiriladigan ma’naviy sarguzashtdir. Madaniy turizm aynan shu moddiy boyliklarni sayyohlarga tanishtirish va targ‘ib qilishga asoslanadi. Shu sababli milliy qadriyatlar madaniy turizm rivojida muhim o‘rin tutadi. Bu turizm yo‘nalishi Sharq va G‘arbni bog‘lagan qadimiy karvon yo‘llarini qayta jonlantirishga xizmat qiladi. Ipak yo‘li turizmining mohiyati madaniy-tarixiy turizm sirasiga kiradi. Uning asosiy maqsadi sayyohlarga qadimiy shaharlar, me’moriy yodgorliklar va o‘sha davrdagi xalqlarning turmush tarzini ifodalash o‘sha davr haqida ma’lumot berish, va ko‘rsatishdan iboratdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Madaniy turizm nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega. U xalqaro madaniy almashinuvni kuchaytiradi, turli xalqlar o‘rtasida o‘zaro tushunish, bag‘rikenglik va do‘stlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, mahalliy aholining o‘z tarixiga, milliy qadriyatlariga bo‘lgan hurmatini oshiradi, yoshlar orasida madaniy ongni shakllantiradi. Shuningdek, turizmning bir qismi sifatida mehmondo‘stlik ushbu sohani rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. O‘zbek milliy mentalitetida turizm madaniyatining qadrli maqomi mehmondo‘stlik an’analari bilan bog‘liq holda alohida ahamiyatga ega deb hisoblanadi. Buyuk pandnoma muallifi Kaykovus mehmondo‘stlik va mehmonga bo‘lgan munosabat haqida shunday yozadi: “Qachonki uyingizga mehmon kelsa, butun ahli ayolingiz bilan ularning oldiga chiqing va shirin so‘z bilan muloqot qiling, toki ular sizdan minnatdor bo‘lsin” [2: 400.] Ushbu fikrlarga tayangan agar uyga mehmon kelsa, uy egasi butun oila bilan ularni hurmat bilan kutib olishi, iliq va shirin so‘zlar bilan muloqot qilishi kerak. Shunda mehmonlar xush kayfiyatda bo‘ladi va mezbondan minnatdor bo‘lib ketadi. buning natijasida do‘stlik, bag‘rikenglik rivojlanadi jamiyatda va insonlar orasida munosabatlar mustaxkamlanadi, Bir necha yillar oldingi an’analar urf -odatlat qadriyatlar va sharqona tarbiya tizimlari shakillanadi. Bundan tashqari mehmondo‘stlik, hurmat va yaxshi muomala qilishning muhimligini ta’kidlaydi. Sharq madaniyatida, jumladan o‘zbek an’analarida mehmonni izzat-ikrom bilan kutib olish katta qadriyat hisoblanadi.

XV asr olimi Husayn Voiz Koshifiy mehmon kutish odoblari haqida quyidagi fikrlarni yozib qoldirgan: mehmonni ta’zim bilan kutib olish va yaxshi joyga o‘tqazish, mehmonning oldida ochiq chehra bilan o‘tirish, qancha mehmon kelishidan qat’i nazar xafa bo‘lmaslik, chaqirilmagan mehmonga ko‘proq hurmat ko‘rsatish, baxillik qilmaslik va mehmondan g‘azablanmaslik, soxta lutf ko‘rsatmasdan, imkon qadar sidqidildan mehmonni xursand qilish [1:64.] Husayn Voiz Koshifiy tomonidan keltirilgan bu fikrlar **mehmondo‘stlik odobi va insoniy muomala madaniyati** haqida juda muhim tarbiyaviy g‘oyalarni ifodalaydi Har bir insonning mehmonga bo‘lgan munosabati va muomalasi sitqidildan bo‘lishligini ifodalaydi. Koshifiy ta’limotida mehmondo‘stlik faqat odob emas, balki insonning ma’naviy yetukligi va saxovatini va insoniyligini ko‘rsatadigan muhim qadriyat sifatida korishimiz mumkin.

Mahmud ibn Muhammad o‘zbek mehmondo‘stligi haqida ushbu fikrlarni bildiradi: "Mehmon kelganda undan nima yeyishni xohlashini va o‘zini qanday his qilayotganini so‘rash mumkin. Agar uning xohishi inobatga olinsa, mehmonning shodligi ortadi. Biroq, mehmonga: "Biror nima yeysizmi, biror narsa olib chiqaymi?" kabi savollar berish o‘ta odobsizlikdir. Shuning uchun uyda bor narsani uning oldiga qo‘yish kerak". Bu fikr mehmondo‘stlik madaniyatida **samimiylik va odob chegarasi** qanday bo‘lishi kerakligini tushuntiradi.

Biz o‘zbek milliy qadriyatlar tizimidagi mehmondo‘stlik an’analari orqali turizm madaniyatini rivojlantirishimiz va mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlar oqimini oshirishimiz lozim. milliy qadriyatlar saqlanib qolishi va avloddan-avlodga yetkazilishiga yordam beradi. Madaniy turizm rivojlanib borgani sari qadimiy urf-odatlar va an’analar tiklanadi hamda ular keng ommaga tanitiladi. Bundan tashqari iqtisodiy rivojlanishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatibgina qolmasdan sayyohlar oqimi ko‘payishi natijasida xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi va mahalliy aholining daromadi oshadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, madaniy turizm nafaqat oddiy sayohat yoki dam olish shakli emas, balki u har bir xalqning tarixiy xotirasi, milliy o‘zligini anglash urf-odatlarni keyingi avlodga yetkazish jarayoni va shu bilan birga bu qadriyatlarni dunyoga keng targ‘ib etish vositasidir. Madaniy turizm orqali sayyohlar bir xalqning urf-odatlari, an’analari, me’moriy yodgorliklari, san’ati va turmush tarzi bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va madaniy muloqotni kuchaytiradi. Shuningdek, madaniy turizm mamlakatning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini, ya’ni imijini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. U investitsiyalar oqimini jalb qiladi, yangi ish o‘rinlari yaratadi va xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishiga turtki beradi. Natijada bu soha iqtisodiy o‘sishga sezilarli hissa qo‘shadi.

Bundan tashqari, madaniy turizm madaniy merosni asrash va uni kelajak avlodlarga yetkazishda ham katta rol o‘ynaydi. Tarixiy obidalar, qadimiy shaharlar va arxeologik yodgorliklarning saqlanishi ham aynan turizm orqali yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki ular nafaqat milliy boylik, balki iqtisodiy resurs sifatida ham qadrlanadi. O‘zbekiston misolida qaraydigan bo‘lsak, mamlakatimizning boy tarixiy-madaniy salohiyati, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlar, betakror me’moriy yodgorliklar hamda milliy qadriyatlar madaniy turizmni rivojlantirish uchun juda mustahkam asos yaratadi. Bu hududlar dunyo sayyohlarini o‘ziga jalb etuvchi noyob markazlar hisoblanadi. Kelajakda esa madaniy turizm O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror va istiqbolli tarmoqlaridan biriga aylanishi mumkin. To‘g‘ri strategiya, infratuzilmani rivojlantirish va milliy merosni samarali targ‘ib qilish orqali bu soha nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki xalqimizning madaniy boyligini yanada keng dunyoga tanitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Husayn Voiz Koshifiy. «Futuvvatnomai sultoniy». Toshkent, A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994, 64-b.
2. Turizm va mehmonxona xo‘jaligi. Darslik / i.f.d., prof. A.D. Chudnovskiy tahriri ostida. – M.: «Tandem» mualliflar va nashriyotchilar uyushmasi. EKMOS nashriyoti, 2001. – 400 b.

3. O‘zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning ijtimoiy- iqtisodiy jihatlari-B.Erkayeva(2021) ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
4. Колотова Е. В.(1999) Рекреационное ресурсоведение: Учеб. пособие. - М.: РМАТС.
5. Richards, G. (1996) Cultural Tourism in Europe. CABI, Wallingford
6.https://uz.wikipedia.org/wiki/UNESCOning_O‘zbekistondagi_ Butunjahon_merosi_ro‘yxati.
7. Internet manbalari: www.madaniyturizm.uz, www.uzbektourism.uz